



"GEPA-LAYK" QURUQ EKSTRAKTI TARKIBIDAGI FLAVONOIDLAR MIQDORINI ANIQLASH

Iminova I.M.

Sodiqova G.A.

Toshkent farmatsevtika instituti, Toshkent, O'zbekiston
e-mail: noyatiminova@gmail.com тел. (+99890)3596457
<https://doi.org/10.5281/zenodo.17337867>

Dolzarbli: Bugungi kunda jigar kasalliklari dunyo miqyosida eng keng tarqalgan surunkali kasalliklardan biri hisoblanadi. O'tkir va surunkali gepatitlar, toksik gepatozlar, alkogolli jigar zararlanishlari, steatoz va sirroz kabi holatlar nafaqat rivojlanayotgan, balki rivojlangan davlatlar sog'liqni saqlash tizimi oldida turgan dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Mahalliy xom ashyo asosida jigar kasalliklariga qarshi dori vositasini olish uchun izlanishlar olib borildi.

Tadqiqotning maqsadi: yuqoridagilarni inobatga olgan holda mahalliy xom ashyolar mahalliy Artishok (*Cynara scolymus*) va Rastoropsha (*Silybii marianum*) o'simliklari asosida olingan jigar kasalliklarini davolash uchun qo'llaniladigan "Gepa-layk" quruq ekstraktini sifatini baholash va tahlil usullarini o'rganish maqsad qilib olindi.

Usul va uslublar: tadqiqot ob'ekti sifatida mahalliy ishlab chiqaruvchi korxona talabiga ko'ra mahalliy xom ashyo Artishok (*Cynara scolymus*) va Rastoropsha (*Silybii marianum*) o'simligi asosida olingan "Gepa-layk" quruq ekstrakti olindi. Olingan "Gepa-layk" quruq ekstrakti sifatini baholash uchun uning tarkibidagi asosiy biofaol moddalarni sifat tahlil usullarining YuSSX usulida optimal sharoitlari ishlab chiqildi.

Natijalar: bunda xromatografiyalash Agilent Technologies -1260, USA rusumli YuSSX dan foydalanildi. Adabiyotlarda steroidlar va flavonoidlarni YuSSX bilan aniqlashda elyuyent sifatida fosforli, atsetatli bufer sistemalari va atsetonitrildan foydalanilgan. Biz fosfatli bufer sistemasi hamda atsetonitrildan foydalandik.

Xromotografiya sharoitlari:

-Xromotograf Agilent-1200 (avtodorozator bilan jihozlangan)

-Kolonka Exlipse XDB C 18, 5 mkm, 4,6 x250mm

-Diod matritsali detektor (DAD), 254 nm, 276 nm identifikatsiya qilindi. Oqim tezligi 0,8 ml/min. Elyuyent fosfatli bufer: atsetonitril, 0-5 min 95:5, 6-12 min 70:30, 12-13 min 50:50, 13-15 min 95:5, termostat harorati 300 C°, -10 mkl kiritilgan miqdor.

Xromotografga dastlab, ishchi standart eritmalar, keyinchalik tayyorlangan ishchi eritmalar kiritildi. Ta'sir etuvchi moddalarning miqdorini quyidagi 1-jadval orqali bilib olishimiz mumkin: 1-jadval

Flavonoidlar	Gepa layk
	konsentratsiya (mg/gr)
Digidrokversitin	1,62
Lyutionin	1,02
Rutin	28,31
Salidrozd	10,14
Rozavin	11,59

Quruq ekstrakt tarkibidagi Digidrokversitin, Lyutionin, Rutin, Salidrozd va Rozavinlarning xromatogrammalardagi ushlanish vaqtlari, standart moddalarning ushlanish vaqtlariga mos ekanligi aniqlandi.



Xulosalar: 1. "Gepa-layk" quruq ekstrakti tarkibidagi asosiy ta'sir etuvchi moddalar-flavonoidlar miqdorini aniqlashning YuSSX usuli ishlab chiqildi. Quruq ekstrakt tarkibida Rutin (28,31 mg/gr), Salidrozyd (10,14 mg/gr) va Rozavin (11,59 mg/gr) flavonoidlari miqdori aniqlandi. Quruq ekstrakt tarkibidagi Digidrokversitin (1,62 mg/gr) va Lyutionin (1,02 mg/gr) flavonoidlari ham borligini ko'rishimiz mumkin.